

TARIXIY MEROSGA DAXLDORLIK - MA'NAVIY TIKLANISH VA YANGILANISH OMILI

*Egamqulova Dilnavoz Aliyevna,
JDPI "Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(Ma'naviyat asoslari)" yo'nalishi, 1 – bosqich magistranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqola ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan noyob va bebaho madaniy-ma'naviy merosni o'rganish, uni keng xalq ommasiga yetkazish va undan unumli foydalanish masalalarini o'z ichiga olgan. Globallashuv sharoitida yoshlarimizning dunyoqarashini ajdodlarimiz tomonidan axloq-odob va ma'naviyat borasida ilgari surgan fikrlari bilan oziqlantirib borish va ularning ilmiy merosi bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish masalalari tatqiq etilgan va ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *ma'naviy tiklanish, ma'naviy yangilanish, shaxs ma'naviyati, daxldorlik, ma'naviy meros, vorisiylik, vatanparvarlik.*

Аннотация. Эта статья посвящена изучению уникального и бесценного культурного и духовного наследия, оставленного нашими предками, его распространению среди широкой публики и эффективному использованию. В условиях глобализации изучаются и раскрываются вопросы воспитания мировоззрения нашей молодежи идеями наших предков о морали и духовности и формирования чувства гордости за свое научное наследие.

Ключевые слова: *духовное обновление, духовное обновление, личная духовность, причастность, духовное наследие, наследование, патриотизм.*

Annotation. This article covers the study of the unique and invaluable cultural and spiritual heritage left by our ancestors, its dissemination to the general public and its effective use. In the context of globalization, the issues of nurturing the worldview of our youth with the ideas put forward by our ancestors on morality and spirituality and forming a sense of pride in their scientific heritage have been studied and revealed.

Key words: *spiritual renewal, spiritual renewal, personal spirituality, involvement, spiritual heritage, inheritance, patriotism.*

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, uni saqlab qolish va mustahkamlashga qaratilgan zamonaviy omillarni ko'rib chiqib, hayotga tatbiq etmoqda. Ayniqsa, bu omillar ichida yoshlar dunyoqarashida tarixiy merosimizga hurmat va iftixor tuyg'ularini shakllantirish dolzarb muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Mustaqillik yillarida xalqimiz uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy tiklanish davri bo'ldi. Iqtisodiy, siyosiy sohada islohotlarni fuqarolarning shu jabhalarda erishgan huquqlari va yutuqlari misolida ko'rish mumkin. Ma'naviy sohada erishgan yutuqlarimiz esa ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meros va qadriyatlarni o'zlashtirganligimizdir.

Afsuski, biz ajdodlarimiz qoldirgan noyob, bebaho boylikdan o'z vaqtida foydalana olmadik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday fikrlar bildirgan: "Tan olish kerakki, biz bebaho merosimizga ko'pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo'lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e'tiborsizlikka yo'l qo'ymoqdamiz".

Xalqimizning tarixiy ildizlari chuqur, ularni qayta tiklash va yangicha mazmun bilan boyitish bizning oldimizda turgan asosiy vazifalardandir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham o'z qarashlarida milliy ma'naviyatimizning rivoji naqadar muhim ekanligini ta'kidlab: "Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi"¹, degan edi.

Milliy-ma'naviy yangilanish konsepsiyasi ilgari surilganda shaxsning ma'naviyati, tarixiy merosga daxldorligini his etishi asosiy masala hisoblanadi. O'z vatanini sevmagan, uning har bir qarichi uchun mas'uliyatni his etmagan insonga ishonib ham, undan biror nima kutib ham bo'lmaydi. Tarixiy merosga haqli ravishda egalik qilishimiz va undan oqilona foydalanishimiz ma'naviy sohaning rivojiga sababchi bo'ladi. Tarixiy merosimizning tiklanishi degani - zo'ravonlik

¹ Karimov I.A. Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar to'plami. 1-jild. T. O'zbekiston. 1996, B 80.

yo'li bilan avlodlar o'z ajdodlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy meros, urf-odatlar, qadriyatlardan mahrum etilgan, milliy o'zlikni anglashi cheklangan, huquqlari poymol etilib, tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichiga kelganda o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi, yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklardan milliy rivojlanish yo'lida foydalanishdir.

Asrlar davomida buyuk ajdodlarimiz tomonidan to'plangan hayotiy tajribalar, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarni o'z ichiga olgan nodir va bebaho asarlarni o'rganish davri keldi. Birinchi prezidentimiz I. Karimov aytganlaridek: "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixidan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir"².

Ajdodlarimiz merosini o'rgangan har bir kishida milliy g'urur tuyg'usi shakllanadi. Chunki bu bobokalonlarimiz tomonidan ilgari surilgan fikrlar faqatgina milliy yoki mintaqaviy ahamiyatga ega bo'libgina qolmasdan balki, umumbashariy qadriyatlarga tayanganligi, ayniqsa quvonarlidir. "Birgina Zardushtiylik ma'naviyati yoki Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy yoki Abu Nasr Forobiy merosini olib qarasak, ular shu qadar keng qamrovliki, bu meroslarni vorisiylik asosida ma'naviy tizimning kelgusi rivoji uchun asos qilib olishimiz mumkin"³.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir qo'lyozma va bebaho boyliklarni o'rganish, tatqiq etish, nafaqat ma'naviy ozuqa olish, balki bugungi kunning dolzarb bo'lgan muammolariga yechim sifatida qaralmoqda. Xususan, hozirgi kunda yoshlarning dunyoqarashi va fikrlashiga "g'arbcha madaniyat" o'z ta'sirini ko'rsatayotgan bir paytda bundan bir necha asrlar avval ajdodlarimiz tomonidan shaxsning ma'naviyati, axloq-odobi borasida ilgari surgan fikrlari bilan qurollantirib borsak, o'z ko'zlagan maqsadimizga erishamiz.

Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi "Avesto" da ma'naviyat, axloq-odob masalalari haqida shunday fikrlar bildirilganki, ushbu fikrlar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar to'plami. 7-jild. T. O'zbekiston, 1999, B 137

³ Ochilova B.M. Milliy- ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. T. "Istiqlol" 2009, B 52

Eng avvalo, ma'naviy komil, adolatparvar insonni shakllantirish asosiy masala sanaladi. "Avesto" da xalqimizning qadimiy ma'naviy qadriyatlari hisoblangan yaxshilik, insonparvarlik, halollik, pand-nasihatga to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga insonning bunyodkorligi, yaratuvchanligi faqat mehnat oqibatida yuzaga chiqishi mumkin. "Avesto" da dehqonchilikka yaxshilik belgisi sifatida qaralgan. Masalan, "O'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng bo'lgan savobga ekin ekan kishi ega bo'ladi"⁴

Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek: "Inson o'zining his-tuyg'ulariga hukmron, ularni o'zgartirishga, boshqarishga qodir, o'z ruhi va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtaydigan narsalarga aylantirishga, uni tibbiy usul bilan ma'naviy davolashga hamda asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodir bo'ladi"⁵.

Ma'naviyat, tarbiya masalasi butun jamiyat, millatning tashvishi bo'lishi kerak. Agar tarbiya o'z vaqtida berilmas ekan, ota-onasi jamiyatda va kishilar orasida yaxshi nom olgan yoki ko'zga ko'ringan kishi bo'lishidan qat'i nazar, farzand kimlar bilan, qanday davrada yursa, shu davradagilardek inson bo'lib yetishadi. Bunga tarixdan juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Shuning uchun ham qadimdan podshohlar, sultonlar farzandlari tarbiyasini o'zlariga eng yaqin va ishonchli kishilarigagina ishonib topshirishganlar. Bu borada buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida shunday fikrlarni keltiradi: "Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas demishlar.

Yomon xo' tuzalmaydi darmon ila,
Ipak o'lmas ip, rangi alvon ila.
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Bo'lur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslini rangidan,

⁴ Boboyev X., Hasanov S. "Avesto – ma'naviyatimiz sarchashmasi" T. "Adolat", 2001.

⁵ Kenjayev D, Ismatova N, Ro'ziyeva D, Xolmuxamedova N. Tarbiya. Darslik. T. O'zbekiston, 2020, B 35

Va yokim ulangandagi zangidan”⁶.

Ajdodlarimiz merosi orqali millatimizning milliy ongi, shuuri shakllanadi. Milliylikni tan olish – millatga mansub kishilarning ijtimoiy barqarorligini tan olish demakdir. Milliy ruhimizdagi milliy tuyg’ularimiz mavjud milliy tasavvur va kayfiyatlarimiz soda ong sifatida shakllanishi mumkin. Agar milliy mansublik, uning barcha tomonlari insonlar tasavvurida ilmiy asoslangan bo’lsa, uni milliy o’zlikni anglash, merosga daxldorlik deb tushunish mumkin.

Millatning o’zligini anglshi va daxldorligi tushunchalarining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Millatga mansubligini anglash.
2. Millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o’rnini bilish.
3. Milliy qadriyatlarga sodiqlik.
4. Milliy manfaatlarni tushunib yetish.
5. Vatanparvarlik.

Demak, tarixiy merosga daxldorlik hissi – jamiyat, uning madaniyati ravnaqining asosiy shartidir. Chunki tarixiy davomiylik ma’naviyat rivojining qonuniyati sanaladi. Lekin bu degani har bir jamiyat o’tmish madaniy merosini qanday bo’lsa, shundayligicha, ko’r – ko’rona qabul qiladi degani emas. Har bir jamiyat ma’naviy – madaniy merosning o’z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlariga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qiladigan qismini qabul qiladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha ma’naviy meros bu biz uchun juda qadrlı. Ularda ilgari surilgan fikr va qarashlardan nafaqat kishilar dunyoqarashi, ongi, bilimini o’stirishda foydalaishimiz, balki jamiyat va davlat rivojida ham bu bebaho merosning o’rni va ahamiyati beqiyosdir. Ma’naviy jihatdan yangilanayotgan O’zbekistonda buyuk ajdodlarimizning nomlari, ularning ilmiy, axloqiy, falsafiy asarlari doimo davlatimiz va xalqimiz e’zozida bo’lib qoladi.

⁶ Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq” ziyouuz.com kutubxonasidan

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar to'plami. 1-jild. T. O'zbekiston. 1996, B 80.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar to'plami. 7-jild. T. O'zbekiston, 1999, B 137
3. Ochilova B.M. Milliy- ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. T. "Istiqlol" 2009, B 52
4. Boboyev X., Hasanov S. "Avesto – ma'naviyatimiz sarchashmasi" T. "Adolat", 2001.
5. Kenjayev D, Ismatova N, Ro'ziyeva D, Xolmuxamedova N. Tarbiya. Darslik. T. O'zbekiston, 2020, B 35
6. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" ziyouz.com kutubxonasidan